



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yan-var-avgust oylarida viloyat korxonalaridan 12664,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yan-var-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 100,1% ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (92,2 %) ni tashkil etdi.



Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-avgust)


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 11,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida - 0,3 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda - 22,4 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 7,2 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11675,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,2 % ini tashkil etdi.







**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2019- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 16,2 % (14,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 31,1 % (30,6 %) va quyi texnologiyalisi - 52,4 % (54,5 %) ni tashkil etdi.

**2019- yil
yanvar-avgust, % da**



**2020- yil
yanvar-avgust, % da**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,8 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 95,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,6 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 29,5 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,5 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi- 14,1 % (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,4 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati






2020- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 227,0 ming tonna dizel yoqilg'isi (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 17,6 % ga o'sgan), 3,3 ming natriy nitrat (8,6 %), 123,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (21,8 %), 1267,0 ming. litr tabiiy oq va qizil disert uzum vinolari (12,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Uzum vinosi (ming litr)	31	1267	1236
Neft bitumi (ming tonna)	43,6	16,0	-27,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	101,0	123,0	22,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	13,8	20,8	6,2
Aroq 100% (ming litr)	879	729	-150


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**

**2019- yil,
% da**

**2020- yil,
% da**


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 849,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,7 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,2 % ga oshganligi kuzatildi.


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	167,8	179,2	11,4
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	1589,7	1273,0	-316,7





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 77,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



2019- yil,
% da



2020- yil,
% da



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	38845,0	51864,8	13019,8
Zararsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	17568,6	24324,0	6755,4
To'qimachilik chiqindilari, t	10032,5	9043,0	-989,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 35,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 21,4 %ga oshganlik kuzatildi. Shuningdek, to'qimachilik chiqindilari - 9,9 % ga pasayishi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4615,4 mln.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 2,6 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 36,4 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 61,1 % dan 60,0 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida alkogol ichimliklar 0,8 % (2019- yil yanvar-avgust oylarida 1,35 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo`qon shahriga to'g'ri kelib, 18,7 % ni, shuningdek, Farg`ona shahri 16,8 % ni, Marg`ilon shahri 7,3 % ni, Bag`dod tumani 6,4 % ni hamda Quva tumani 5,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Marg`ilon (106,8 %), Quvasoy (104,1 %) Qo`qon (105,6 %) shaharlarida, Bag`dod (104,9 %) Qo`shtepa (105,1 %) hamda Dang`ara (104,9 %) tumanlarida qayd etildi.




**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mln. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Farg`ona viloyati	4615,4	100,0	102,6
Oltiariq t.	150,0	3,3	105,1
Qo`shtepa t.	110,5	2,4	106,2
Bag`dod t.	296,6	6,4	106,0
Buvayda t.	169,0	3,7	104,1
Beshariq t.	182,2	3,9	103,3
Quva t.	251,7	5,4	105,0
Uchko`prik t	233,9	5,1	103,3
Rishton t.	173,7	3,8	103,2
So`x t.	34,8	0,7	91,7
Toshloq t.	201,9	4,4	103,2
O`zbekiston t.	195,0	4,2	105,4
Farg`ona t.	136,8	3,0	104,9
Dang`ara t.	148,2	3,2	105,9
Furqat t.	57,9	1,2	104,1
Yozyovon t.	71,9	1,6	101,0
Farg`ona sh.	773,6	16,8	105,7
Qo`qon sh.	861,6	18,7	106,1
Quvasoy sh.	228,9	4,9	104,9
Marg`ilon sh.	337,2	7,3	107,4

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo`qon shahriga to'g'ri kelib, 23,4 %, shuningdek, Farg`ona shahri 20,1 % ni, Marg`olon shahri 6,1 % ni, Quvasoy shahri 4,6 % ni, Quva tumani 4,6 % ni hamda Beshariq tumani 4,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qo`qon shahri (105,9 %), Marg`ilon shahri (105,8 %), Farg`ona shahri (105,3 %) hamda Quva tumani (105,0 %) qayd etildi.



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mln. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Farg`ona viloyati	1845,9	100,0	103,9
Oltiariq t.	47,2	2,6	102,2
Qo`sh tepa t.	32,9	1,8	102,9
Bag`dod t.	123,4	6,7	104,2
Buvayda t.	60,8	3,3	102,6
Beshariq t.	76,4	4,1	101,0
Quva t.	84,2	4,6	103,1
Uchko`prik t	72,7	3,9	103,2
Rishton t.	63,9	3,5	102,1
So`x t.	14,6	0,8	90,1
Toshloq t.	70,2	3,8	102,6
O`zbekiston t.	62,9	3,4	103,1
Farg`ona t.	45,7	2,5	102,3
Dang`ara t.	46,8	2,5	102,8
Furqat t.	20,7	1,1	103,1
Yozyovon t.	22,4	1,2	100,1
Farg`ona sh.	371,4	20,1	105,3
Qo`qon sh.	432,4	23,4	105,9
Quvasoy sh.	85,5	4,6	103,2
Marg`ilon sh.	111,8	6,1	105,8

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo`qon shahriga to`g`ri kelib, 15,5 % ni, shuningdek, Farg`ona shahri 14,5 % ni, Marg`ilon shahri 8,1 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o`sinh sur`atida yuqori ko`rsatkich Marg`ilon shahri (105,8 %), Oltiariq tumani (104,1 %) Dang`ara tumanida (103,4 %) qayd etildi.



Hududlar bo`yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o`sinh sur`ati
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mln. so`m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O`sinh sur`ati, % da
Farg`ona viloyati	2769,4	100,0	101,8
Oltiariq t.	102,8	3,7	104,1
Qo`sh tepa t.	77,6	2,8	103,1
Bag`dod t.	173,2	6,3	103,1
Buvayda t.	108,2	3,9	103,1
Beshariq t.	105,9	3,8	102,3
Quva t.	167,5	6,0	101,3
Uchko`prik t	161,2	5,8	102,9
Rishton t.	109,8	4,0	101,9
So`x t.	20,2	0,7	91,9
Toshloq t.	131,7	4,8	103,1
O`zbekiston t.	132,0	4,8	102,9
Farg`ona t.	91,1	3,3	102,1
Dang`ara t.	101,5	3,7	103,4
Furqat t.	37,2	1,3	102,5
Yozyovon t.	49,5	1,8	101,8
Farg`ona sh.	402,1	14,5	102,3
Qo`qon sh.	429,2	15,5	101,6
Quvasoy sh.	143,4	5,2	103,2
Marg`ilon sh.	225,3	8,1	105,8



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2946,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 23,3 % ni tashkil etdi.




Farg`ona viloyatida hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-avgust mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Farg`ona viloyati	12664,0	100,1
Oltiariq t.	187,0	93,6
Qo`sh tepa t.	226,3	106,4
Bag`dod t.	443,5	100,8
Buvayda t.	200,1	87,4
Beshariq t.	276,1	111,4
Quva t.	396,1	86,3
Uchko`prik t	711,9	102,6
Rishton t.	200,7	93,7
So`x t.	43,2	92,9
Toshloq t.	1320,9	92,1
O`zbekiston t.	399,3	100,6
Farg`ona t.	159,7	105,3
Dang`ara t.	313,7	97,5
Furqat t.	89,1	101,5
Yozyovon t.	83,3	93,0
Farg`ona sh.	4223,5	89,2
Qo`qon sh.	1984,1	101,0
Quvasoy sh.	783,6	100,7
Marg`ilon sh.	621,9	101,2



O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Viloyatda sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Quva tumani (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 86,3 %), Buvayda tumani (87,4 %), hamda Farg'ona shahri (89,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarishda Marg'ilon shahri (2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 107,4 %), Qo'shtepa tumani (106,2 %), Qo'qon shahri (106,1 %) , shuningdek, Bog'dod tumanida (106,0 %) sezilarli darajada oshdi.



O'zbekiston Respublikasi jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Farg'ona shahri (Farg'ona viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining 33,4 %) hamda Qo'qon shahri (15,7 %), Toshloq tumani (10,4 %), Quvasoy shahri (6,2 %), va Uchko'prik tumani (5,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa So'x (1,4 %), Furqat (0,7 %) hamda Yozyovon (0,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Farg'ona (14 564,4 ming so'm), Quvasoy (8 371,4 ming so'm), Qo'qon (7 821,1 ming so'm) shaharlarida va Toshloq (6 539,3 ming so'm) tumanida, o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 361,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 225,2 ming so'm bo'lgan holda, Qo'qon shahrida – 3 396,2 ming so'mni, Quvasoy shahrida – 2 445,4 ming so'mni, Marg'ilon shahrida – 1 428,7 ming so'mni, Bag'dod tumanida 1 377,7 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Farg`ona viloyati	3361,7	1225,2
Oltiariq t.	884,9	709,8
Qo`shtepa t.	1190,2	581,0
Bag`dod t.	2060,0	1377,7
Buvayda t.	878,5	742,2
Beshariq t.	1211,6	799,5
Quva t.	1535,5	975,6
Uchko`prik t	3117,1	1024,0
Rishton t.	994,8	861,2
So`x t.	554,9	447,1
Toshloq t.	6539,2	999,7
O`zbekiston t.	1673,4	817,0
Farg`ona t.	749,6	642,2
Dang`ara t.	1807,0	854,1
Furqat t.	756,6	491,7
Yozyovon t.	753,7	650,7
Farg`ona sh.	14564,4	2667,6
Qo`qon sh.	7821,1	3396,2
Quvasoy sh.	8371,4	2445,4
Marg`ilon sh.	2635,2	1428,7



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3380,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,3 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltiariq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Buwayda (100,0 %), So'x (100,0 %), Dang'ara (100,0 %), Furqat (100,0 %) va Yozyovon (100,0 %) tumanlarida kuzatildi.

ViLOYAT hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Toshloq tumani (12,6 %), Farg'ona shahri (14,3 %) va Quvasoy tumanida (17,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 8241 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1375 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 16,1 %) Qo'qon shahriga, 1002 tasi (11,7 %) Farg'ona shahriga, 974 tasi (11,5 %) Marg'ilon shahriga, 593 tasi (7,0 %) Uchko'prik tumaniga, 465 tasi (5,5 %) Uzbekiston tumaniga, 428 tasi (5,1 %) Buvayda tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-avgust oyida viloyatda 952 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 101 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 10,6 %) Qo'qon shahrida, 92 tasi (9,7 %) Farg'ona shahrida, 91 tasi (9,6 %) Marg'ilon shahrida, 60 tasi (6,3 %) Uchko'prik tumanida, 59 tasi (5,8 %) Beshariq tumanida, 55 tasi (5,8 %) Rishton tumanida, 51 tasi (5,4 %) Toshloq tumaniga to'g'ri keladi.



Farg`ona viloyat statistika
boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo`limi

Nashr uchun mas'ul: Sh.Zokirov

Aloqa telefoni: 73 -249-87-19